Yıl/Year:2026, Cilt/Volume:5, Sayı/Issue:1

Bo'lajak Xorijiy Til O'qituvchisining Kasbiy-Ijodiy Kompetentligini Rivojlantirishning Didaktik Tamoyillari

Didactic Principles for the Development of the Professional and Creative Competence of the Future Foreign Language Teacher

Bobomurod Aminovich BOBOJONOV
ORCID: 0009-0001-6565-8570

DOI: 10.5281/zenodo.21002059

ANNOTATSİYA

Ushbu maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik tamoyillari tadqiq etilgan. Maqolada xalqaro va milliy ta'lim standartlari, ilg'or pedagog olimlarning nazariy qarashlari hamda Finlyandiya, Germaniya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta'lim, ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada, shuningdek, kasbiy-ijodiy kompetentlikning asosiy turlari va ularni rivojlantirishning didaktik tamoyillari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy-ijodiy kompetentlik, Xorijiy til o'qituvchisi, Didaktik tamoyillar, Kompetensiyaviy yondashuv, Ijodiy fikrlash, Mustaqil ta'lim, Pedagogik texnologiyalar.

ABSTRACT

This article studies the didactic principles of the development of professional and creative competence of future foreign language teachers. The article analyzes international and national educational standards, theoretical views of advanced pedagogical scientists, and the experience of developed countries such as Finland, Germany, and Japan. The research results substantiate the concept of competence, its components, and the importance of independent learning, creative thinking, and innovative approaches in the development of professional and creative competence of future foreign language teachers. The article also recommends the main types of professional and creative competence and didactic principles for their development.

Keywords: Professional and creative competence, Foreign language teacher, Didactic principles, Competency-based approach, Creative thinking, Independent learning, Pedagogical technologies.

Yazar: Bobomurod Aminovich BOBOJONOV
Ünvan: Doktora Öğrencisi
Kurum: Milliy Tadqiqot Universiteti, Toshkent Irrigatsiya Va Qishloq Xo'jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti.
E- mail: b.bobojonov@tiiame.uz

Başvuru Tarihi/Received: 27.04.2026
Kabul Tarihi/Accepted: 20.05.2026

Kirish

Bugungi globallashuv davrida xorijiy til o'qituvchilari nafaqat til bilimdoni, balki ijodiy va innovatsion yondashuvlarga ega bo'lgan mutaxassis sifatida shakllanishi zarur. Shuning uchun bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ta'lim tizimida dolzarb hisoblanadi. O'zbekistonda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning yangi bilimlarni mustaqil izlashiga asosiy e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-paragrafida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida tayanch kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallami keng joriy etish to'g'risida alohida ko'rsatib o'tilgan [1].

Yoshlarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham alohida e'tibor qozongan. Masalan, BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida (1948) ta'kidlanganidek, "ta'lim inson shaxsining to'liq rivojlanishiga yo'naltirilishi lozim" [2]. Bu talqin ta'lim jarayonida ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantirishni ham qamrab oladi.

Shuningdek, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada (1989) ta'limning vazifalari orasida "bolaning iste'dod va aqliy qobiliyatlarini to'liq darajada rivojlantirish" zarurligi ko'rsatib o'tiladi [3]. Bu norma yoshlarning ijodiy salohiyatini kengaytirish va ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish zarurligini belgilaydi.

YUNESKO hujjatlari ham ijodiy rivojlanishni ta'limning muhim vazifasi sifatida ko'rsatadi. Masalan, "Ta'lim: yashirin xazina" nomli mashhur hisobotda (Delors, 1996) ta'limning to'rt ustuni belgilangan bo'lib, ulardan biri – "bo'lishga o'rganish" – aynan ijodiy rivojlanish va shaxsiy kamolot bilan bog'liq [4]. Shuningdek, Seul deklaratsiyasi (UNESCO, 2006) ijodkorlikni "barqaror rivojlanishning kaliti" sifatida ta'kidlaydi [5]. Keyingi global ta'lim hisobotlari (2015; 2021) esa yoshlarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishni dolzarb vazifa sifatida ko'rsatadi [6, 7].

Yevropa Ittifoqining me'yoriy hujjatlari ham bu yo'nalishda muhim o'rin tutadi. Jumladan, Umr bo'yi ta'lim uchun asosiy kompetensiyalar doirasi (European Parliament, 2006/2018) da ijodiy va innovatsion tafakkur asosiy kompetensiyalar qatorida e'tirof etilgan [8]. Shuningdek, "Yevropa 2020" strategiyasida innovatsiya va ijodkorlik yoshlar taraqqiyotining yetakchi omillari sifatida belgilangan [9].

Bundan tashqari, BMTning (2015-2030) yillarda barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, sifatli ta'lim yoshlarning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlangan [10].

Xalqaro hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. BMT, YUNESKO va Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar

kelajakning muvaffaqiyati ijodiy va innovatsion tafakkurga ega bo'lgan avlod qo'lida ekanini ta'kidlab keladi.

Metodologiya

Bugungi raqobatbardosh ta'lim muhitida xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Zamonaviy ta'lim ilg'or tajribalarida bu kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Finlyandiya, Germaniya va Yaponiya ta'lim tizimlari bu borada o'ziga xos yondashuvlarga ega bo'lib, ularning tajribasi umumiy tendensiyalarni ham, o'ziga xos milliy xususiyatlarni ham aks ettiradi.

Finlyandiya ta'lim tizimi o'qituvchiga yuqori ishonch bildiradi va ularni erkin, ijodiy shaxs sifatida rivojlantirishga intiladi. O'qituvchilar doimiy ravishda ilmiy-ijodiy loyihalarda ishtirok etadi, fanlararo integratsiyalangan yondashuvlar (masalan, CLIL, STEAM) asosida darslar olib boradi. Maktablarda metodik eksperimentlar va kreativ laboratoriyalar orqali o'qituvchilar pedagogik yondashuvlarini takomillashtiradi. Ular o'z pedagogik amaliyotlarini mustaqil ravishda shakllantirish va yangilash imkoniga ega. Mentorlik, reflektiv tahlil va professional rivojlanish dasturlari orqali kasbiy-ijodiy faollik doimiy qo'llab-quvvatlanadi [11].

Germaniyada esa o'qituvchilarning kasbiy-ijodiy faolligi kuchli nazariy-metodik asos va amaliy tayyorgarlik orqali shakllantiriladi. Bu davlatda o'qituvchilar pedagogik universitetlarda puxta tayyorgarlikdan o'tadi, darslarni loyihalash, innovatsion metodik yondashuvlar va CLIL prinsipi asosida ishlash bo'yicha ko'nikmalarni egallaydi. Muntazam tashkil etiladigan seminar va didaktik laboratoriyalar orqali ularning metodik tafakkuri va ijodiy faoliyati rivojlantiriladi. Shu bilan birga, ta'lim mazmunining yangilanishi, o'qituvchilarning metodik materiallarni ishlab chiqishdagi ishtiroki ham ularning kasbiy faolligini oshiradi [12].

Yaponiya ta'lim tizimida esa uzluksiz o'qituvchi rivoji va dars tahliliga asoslangan yondashuv ustuvorlik kasb etadi. Mashhur "Lesson Study" metodi asosida o'qituvchilar o'zaro darslarni kuzatadi, muhokama qiladi va takomillashtiradi. Bu jarayonlar orqali nafaqat dars sifati, balki o'qituvchining kasbiy-ijodiy salohiyati ham ortadi. Jamoaviy refleksiya, o'zaro tajriba almashish, ijodiy muammo asosida dars dizaynini yaratish o'qituvchilarni doimiy o'rganishga undaydi. Tartib-intizomga asoslangan yapon pedagogikasi bilan bir qatorda, bu jarayonlar o'qituvchining ichki motivatsiyasi va innovatsion salohiyatini oshiradi [13].

Umuman olganda, mazkur davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy til o'qituvchisining kasbiy-ijodiy faolligini shakllantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Shaxsiy tashabbus va mustaqil izlanishlarni rag'batlantirish (Finlyandiya);

Kuchli metodik va amaliy tayyorgarlik (Germaniya);

Hamkorlik va doimiy takomillashuvga asoslangan yondashuv (Yaponiya).

Mashhur olimlarimiz Muhammad Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Yugnakiy, Abdulla Avloniylarning ilmiy qarashlari va ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida umumpedagogik va didaktik g'oyalar, shu bilan birga mustaqil fikrlash, mustaqil ta'lim olish masalalari aks

ettirilgan [14].

"Kompetensiya" atamasining ilk shakllanishi AQSh tilshunosi Noam Chomsky tomonidan 1965-yilda "Aspects of the Theory of Syntax" asarida lingvistik kompetensiya tushunchasi orqali kiritilgan: "Linguistic competence is the speaker-hearer's knowledge of his language" - ya'ni, til egasining o'z tilining grammatik tizimi haqidagi bilimlar majmuasi [15].

Rus olimi A.V. Xutorskoy kompetensiyaviy yondashuvning yetakchi tarafdorlaridan biri hisoblanadi va kompetensiyani "ta'lim natijasi sifatida shakllanadigan shaxsiy va faoliyatga oid xususiyatlar majmuasi" deb ta'riflaydi: "Kompetentlik - bu shaxsning bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat usullari va shaxsiy sifatlarni o'z ichiga oluvchi integral xususiyatidir" [16].

O'zbekistonlik olimlardan M.A. Raxmonov "kompetensiya" tushunchasini "bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning uyg'unlashgan yondashuvi" deb izohlaydi va bu tushunchaning zamonaviy ta'limdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi: "Kompetensiya - bu shunchaki bilim emas, balki olingan bilimni hayotiy va kasbiy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish salohiyatidir" [17].

N.Q. Jo'rayevning fikricha, kompetensiyaviy yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limning negizini tashkil qiladi: "Zamonaviy pedagogikada kompetensiyaga asoslangan ta'lim - bu natijaga yo'naltirilgan, amaliy ahamiyatga ega bilimlarni shakllantirish jarayonidir" [18].

N.M. Muslimovning fikricha, ingliz tilidagi "competence" tushunchasining leksik ma'nosi "qobiliyat"ni anglatadi, biroq "kompetensiya" termini bilim, ko'nikma, mahorat va iste'dodni ifodalash uchun xizmat qiladi [19].

Kompetensiya turlarini tasniflash borasida turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A. Muslimov va M.B. Urazova kasbiy ta'lim nuqtayi nazaridan quyidagi turlarni ajratib ko'rsatadi:

Maxsus kompetensiya - o'z kasbiy faoliyatini yetarli darajada yuqori darajada egallash, keyingi kasbiy rivojlanishni loyihalash qobiliyati;

Ijtimoiy kompetensiya - hamkorlikka asoslangan kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o'z mehnati natijalariga ijtimoiy mas'uliyat;

Shaxsiy kompetensiya - shaxsning mustaqil aks ettirish va mustaqil rivojlanish usullari, kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

Individual kompetensiya - kasb doirasida mustaqil qo'llash va individuallikni rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o'sish, mustaqil tashkil etish va mustaqil reabilitatsiyaga tayyorgarlik;

Asosiy kompetensiyalar - shaxsning moslashuvi va samarali ijodkorligi uchun zarur bo'lgan madaniyatlararo va tarmoqlararo bilim, qobiliyat va ko'nikmalar [20].

Kasbiy kompetensiya - bu biror kasbni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarning majmuasidir. U, asosan, ishlash jarayonida professional muvaffaqiyatni ta'minlashga xizmat qiladi va quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1-jadval. Kasbiy kompetensiya asosiy komponent va tarkibiy qismlari

№	ASOSIY KOMPONENTLAR	TARKIBIY QISMLARI	MAZMUNI
1	**BILIM**	1. Nazariya - tushunchalar, qonuniyatlar, modellar 2. Metodologiya - usullar, yondashuvlar, tamoyillar 3. Qonun-qoidalar - standartlar, normalar, me'yorlar 4. Me'yorlar - sifat talablari, baholash mezoni	Kasb haqidagi nazariy bilimlar, qonunlar va qoidalar. Mutaxassisga tushunish, tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatini beradi.
2	**KO'NIKMA**	1. Faoliyatni amaliy ketma-ket bajara olish 2. Texnologiyalar mexanizmini tushunish 3. Vosita va usullarni tanlab qo'llash 4. Faoliyatning amaliy modelini yaratish	Mashq va tajriba orqali shakllangan amaliy harakatlar. Texnika va usullardan foydalanishni o'rgatadi.
3	**MALAKA**	1. Nazariyani amalda qo'llash 2. Ko'nikmalarni birlashtirib ishlatish 3. Vaziyatga mos tez qaror qabul qilish 4. Ishni baholash va takomillashtirish	Bilim va ko'nikmalarni turli vaziyatlarda qo'llash qobiliyati. Murakkab va moslashuvchan ishlash darajasi.
4	**SHAXSIY QOBILIYAT**	1. Ijodiy fikrlash 2. Muammolarni hal qilish 3. Jamoada ishlash 4. Vaqtni boshqarish 5. Aqliy tushinish 6. Tashabbuskorlik 7. Moslashuvchanlik 8. Stressga chidamlilik	Shaxsning tabiiy va rivojlangan xususiyatlari. Ijodkorlik, muloqot va yangiliklar yaratish imkoniyati.

Ijodiy kompetensiya - bu shaxsning yangi g'oyalar ishlab chiqish, muammolarni hal qilishda yangi va samarali usullarni topish, mavjud bilim va tajribani innovatsion tarzda qo'llay olish qobiliyatidir. Boshqacha aytganda, bu shaxsning ijodiy yondashuvni qo'llash va o'z fikrini mustaqil ravishda rivojlantirishdagi malakasidir.

Ijodiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Ijodiy fikrlash - yangi g'oyalar yaratish, kutilmagan qarorlar qabul qilish, vaziyatlarni boshqa nuqtai nazardan ko'rish qobiliyati;

Innovatsiya yaratish - yangi usullar va texnikalar yaratish, o'zgarishlarga moslashish va yangiliklarni amalga oshirish;

Muammoni hal qilish - kompleks va an'anaviy yechimlardan tashqariga chiqib, turli vaziyatlarda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish;

Kommunikatsiya - ijodiy fikrlarni boshqalar bilan samarali baham ko'rish, guruhda ishlash va yangi g'oyalarni amalga oshirish.

Ijodiy kompetensiya nafaqat san'at yoki ilm-fan sohalarida, balki pedagogika va boshqa kasbiy faoliyatlarda ham muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy-ijodiy kompetensiya tushunchasi - bu o'qituvchining pedagogik faoliyatida ijodiy yondashuvni qo'llash, o'quvchilarning tilni o'zlashtirishdagi motivatsiyasini oshirish va ular bilan muvaffaqiyatli muloqot o'rnatish

qobiliyatidir [21]. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ijodiy yondashuvlarning muhimligi shundaki, ular o'qituvchining o'quvchilarga yangi g'oyalar bilan murojaat qilish, interaktiv metodlarni qo'llash va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish imkonini beradi [22].

Kasbiy-ijodiy kompetensiya faqat metodik ko'nikmalar emas, balki shaxsiy sifatlar bilan ham belgilanadi. L. Vygotskiy (1991) ta'kidlaganidek, "ijod - bu insonning o'z imkoniyatlarini yangi sharoitlarda qo'llash qobiliyati" [23]. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil tafakkur, moslashuvchanlik va refleksiv yondashuvni rivojlantirish zarur.

Kasbiy-ijodiy kompetensiya - bu nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va amaliyotda yangi yechimlar topish qobiliyatidir. Mustaqil topshiriqlar esa talabaning:

Faol subyektga aylanishi,

Ijodiy izlanishga kirishishi,

Mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini ta'minlaydi.

Passov (1991) aytganidek, "o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ijodiy sharoit yaratib beruvchi shaxsdir" [24].

Xorijiy til ta'limi jarayonida kasbiy-ijodiy kompetensiyani oshirish, avvalo, didaktikaning umumiy qonuniyatlari va tamoyillariga tayanadi. Ta'lim mazmunini tanlashda integrativlik, kommunikativlik va faoliyatga yo'naltirilganlik asosiy o'rin tutadi. N.I. Gez (2006) ta'kidlaganidek, "til o'rganish jarayonida o'quvchi faoliyat subyekti sifatida ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak" [25]. Demak, kasbiy-ijodiy kompetensiya o'quvchilarning kommunikativ faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda didaktik vositalar va metodlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. E.I. Passov (2010) xorijiy tilni o'qitishda muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish samarali natija berishini ta'kidlaydi [26].

Natijalar va Muhokama

Tadqiqot natijalari asosida bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantiruvchi quyidagi kompetensiya turlari aniqlandi:

2-jadval. Xorijiy til oqitishda kasbiy-ijodiy kompetensiya turlari

№	ASOSIY KOMPONENTLAR	TARKIBIY QISMLAR	MAZMUNI
1	**MOTIVATSION-qiymatli**	➢ Ijodiy faoliyatga ichki motivatsiya ➢ Xorijiy til va madaniyatga qiziqish ➢ Pedagogik tashabbuskorlik ➢ O`zini rivojlantirishga intilish ➢ Yangilikka ochiqlik	O`qituvchining ijodiy va innovatsion faoliyatga ichki ehtiyoji hamda kasbiy yo`nalganligi
2	**KOGNITIV (lingvistik-metodik)**	➢ Lingvistik bilimlar (leksika, grammatika, fonetika) ➢ Madaniyatlararo kommunikatsiya bilimlari ➢ Xorijiy til o`qitish metodikasi ➢ Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (PBL, TBL va boshqalar) ➢ Ijodiy fikrlash nazariyalari	Ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan bilimlar tizimi

3	**FAOLIYAT-OPERATSION (ijodiy–amaliy)**	➢ Noan'anaviy dars shakllarini loyihalash ➢ Ijodiy topshiriqlar ishlab chiqish ➢ Muammoli va loyiha asosida o'qitish ➢ Raqamli vositalardan ijodiy foydalanish ➢ Pedagogik moslashuvchanlik	Bilim va motivatsiyani real pedagogik faoliyatda ijodiy qo'llash qobiliyati
4	**KOMMUNIKATIV-IJODIY**	➢ Nutqiy vaziyatlar yaratish ➢ Dialog va polilogni ijodiy tashkil etish ➢ Autentik materiallar bilan ishlash ➢ O'quvchilarning nutqiy tashabbusini qo'llab-quvvatlash ➢ Til vositalaridan erkin foydalanish	Xorijiy tilni muloqot vositasi sifatida ijodiy tashkil etish qobiliyati
5	**REFLEKTIV**	➢ O'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish ➢ O'z xatolarini aniqlash va tuzatish ➢ O'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini kuzatish ➢ Yangi yondashuvlarni sinab ko'rish va baholash ➢ Shaxsiy pedagogik rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish	O'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, o'z ish jarayonidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash va baholash qobiliyati

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi didaktik tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

3-jadval. Xorijiy til oqitishda kasbiy-ijodiy kompetensiyani oshirish tamoyillari

Tamoyillar	Tamoyil mexanizm va natija
Faoliyatga yo'naltirilganlik	Talaba mustaqil vazifa va topshiriqlar orqali **rejalashtirish** → **bajarish** → **refleksiya** → **tahlil** siklida kasbiy qaror qabul qilish va mas'uliyatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish
Muammoli-ijodiylik	Talaba **nostandart pedagogik vazifalarni mustaqil bajarish** orqali yangi pedagogik yechimlar ishlab chiqadi, metodologik qarorlarni faollashtiradi va kreativ tafakkurini rivojlantiradi
Kommunikativ yo'naltirilganlik	Talaba **loyiha va guruh vazifalarida tilni kasbiy-professional kontekstda qo'llaydi**, madaniyatlararo kommunikatsiya va interaktiv hamkorlik ko'nikmalarini mustahkamlaydi
Kompetentlikka asoslanganlik	Talaba **topshiriqlarni rejalashtiradi, bajarilgan ishlarni tahlil qiladi, natijalarni diagnostika qiladi**, va kompetentlikning bilim, amaliy ko'nikma, ijodiy faollik va refleksiv komponentlarini integrativ tarzda rivojlantiradi
Universal refleksiya (ichki mexanizm)	Refleksiya **barcha mustaqil vazifa va topshiriqlarda yakuniy bosqichda integrallashgan holda** qo'llaniladi, kasbiy va ijodiy kompetentlikni chuqurlashtiruvchi ichki rivojlantiruvchi omil sifatida ishlaydi

Xulosa

Umuman shu yuqorida olib borilgan nazariy tahlillar asosida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetentligini oshirish jarayoni muayyan didaktik va metodik tamoyillarga tayanishi lozimligi aniqlandi. Ushbu tamoyillar o'quv jarayonining mazmuni, shakli va natijalarini tizimli ravishda belgilab, kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijada, faoliyatga yo'naltirilganlik tamoyili talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilsa, muammoli-ijodiylik tamoyili ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va innovatsion qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Kommunikativ yo'naltirilganlik tamoyili xorijiy tilni kasbiy muloqot vositasi sifatida egallashni ko'zda tutib, real kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etishni rag'batlantiradi. Kompetentlikka asoslanganlik tamoyili esa o'quv jarayonining yakuniy natijalarini aniq kompetensiyalar shakllanishi bilan bog'lab, bilim, ko'nikma va malakalarni

integratsiyalashgan holda rivojlantirishga yo'ltiriladi.

Shunday qilib, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetentligini oshirish faoliyatga yo'naltirilganlik, muammoli-ijodiylik, kommunikativ yo'naltirilganlik va kompetentlikka asoslanganlik tamoyillari asosida tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Ushbu tamoyillar kasbiy, ijodiy, kommunikativ va metodologik komponentlarning uzviy uyg'unligini ta'minlab, keyingi bobda ishlab chiqiladigan metodik model va mustaqil topshiriqlar tizimi uchun mustahkam nazariy-metodik poydevor yaratadi.

REFERENCES

Almazova, N., Shimichev, A., & Oberemko, O. (2021). Professional and creative competence of foreign language teachers. *Language and Education, 5*(2), 115-125.

Azizkhodjaeva, N. N. (2012). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat* Pedagogical technologies and pedagogical mastery. TDPU.

B. A. Bobojonov., (2025, апрель 23). Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy faollik qobiliyatlarini oshirishning muhim tamoyillari.

B. A. Bobojonov., (2025, апрель 24). Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari va zamonaviy yondashuv (IGFDMZY-2025), Tashkent. https://doi.org/10.5281/zenodo.15277376

B. A. Bobojonov., Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetenligini oshirishning ahamiyati. (2025). International Conference on Education and Innovation, 2(2), 93-101. https://doi.org/10.70728/conf.v2.i02.022

B. A. Bobojonov., Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy-ijodiy faolligi va uning ahamiyati. The conference dedicated to the 90th anniversary of the "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University on the topic "Development of Specialized Higher Education and Science in the Conditions of Globalization: Problems and Opportunities" International Scientific Conference. April 9–10, 2025, Tashkent, Uzbekistan.

B. A. Bobojonov., Talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirish orqali ijodiy faolligini rivojlantirishning muhim jihatlari. Til-millat ko'zgusi. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi. Toshkent 2025-yil, 17-oktyabr. 63-65 bb.

Bobojonov B. A., & Urazova M. B. (2025). Enhancing the professional and creative competences of future foreign language teachers. In the world of science and education, 6(6), 69–74. https://doi.org/10.5281/zenodo.17461407

Bobojonov B. A., (2025, март 6). Methods for developing the professional and creative competencies of future foreign language teachers. Prospects of teaching english for professional purposes in non – philological higher education institutions: problems and solutions, Uzbekistan. https://doi.org/10.5281/zenodo.14979311

Chomsky, N. (1965). *Aspects of the theory of syntax*. MIT Press.

Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge University Press.

Delors, J. (1996). *Learning: The treasure within*. UNESCO.

European Commission. (2010). *Europe 2020: A strategy for smart, sustainable and inclusive growth*. https://ec.europa.eu/info/strategy/priorities-2019-2024/europe-fit-digital-age/europe-2020-strategy_en

European Parliament. (2006/2018). *Key competences for lifelong learning*. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32018H0604(01)

Eurydice. (2018). Teaching Careers in Europe: Access, Progression and Support. European Commission.

Gez, N. I. (2006). *Metodika obucheniya inostrannym yazykam v sredney shkole*. Methods of teaching foreign languages in secondary school. Vysshaya shkola.

https://cdn.tiiame.uz/assets/uploads/9e27fa6dc6a84b0aa53e849183d5290a.pdf

https://doi.org/10.5281/zenodo.15271519

Jo'rayev, N. Q. (2021). *Kompetensiyaga asoslangan ta'lim: Nazariya va amaliyot*. Competence-based education:

Theory and practice. Iqtisod-moliya.

Khutorskoy, A. V. (2003). Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy paradigmy obrazovaniya. Key competencies as a component of the personality-oriented paradigm of education. *Narodnoye obrazovaniye, 2*, 58-64.Vygotsky, L. S. (1991). Pedagogicheskaya psikhologiya. Educational psychology. Pedagogika.

Lewis, C., Perry, R., & Hurd, J. (2009). Improving mathematics instruction through lesson study: A theoretical model and North American case. Journal of Mathematics Teacher Education, 12(4), 285-304.

Muslimov, N. A. (2015). Kasbiy ta'lim metodologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya. 110-115-bb.

Muslimov, N. M., & Urazova, M. B. (2017). *Kasbiy kompetentlik: Nazariya va amaliyot*. Professional competence: Theory and practice. O'qituvchi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2019). O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida (PF-5847). www.gov.uz

Passov, E. I. (1991). Kommunikativnyy metod obucheniya inoyazychnomu govoreniyu. Communicative method of teaching foreign speech. Prosveshcheniye.

Passov, E. I. (1991). *Kommunikativnyy metod obucheniya inoyazychnomu govoreniyu*. Communicative method of teaching foreign speech. Prosveshcheniye.

Passov, E. I. (2010). *Osnovy kommunikativnoy metodiki obucheniya inoyazychnomu obshcheniyu*. Fundamentals of the communicative methodology of teaching foreign language communication. Russkiy yazyk.

Rakhmonov, M. A. (2020). *Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv*. Competence-based approach in modern education. Fan.

Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What can the world learn from educational change in Finland? Teachers College Press.

UNESCO. (2006). *Seoul agenda: Goals for the development of arts education*. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000147102

UNESCO. (2015). *Rethinking education: Towards a global common good?* https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000232555

UNESCO. (2021). *Reimagining our futures together: A new social contract for education*. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379707

United Nations. (1948). *Universal declaration of human rights*. https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights

United Nations. (1989). *Convention on the rights of the child*. https://www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/crc.aspx

United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 agenda for sustainable development*. https://sdgs.un.org/2030agenda

Vygotsky, L. S. (1991). *Pedagogicheskaya psikhologiya*. Educational psychology. Pedagogika.